



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI  
PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR  
FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Hotamov Mumin Axmadovich, Ergasheva Madina Baxriddin qizi**

*Samarqand davlat universiteti, Sport faoliyati va san'at fakulteti, Sport faoliyati kafedrasи o'qituvchilari*

**YOSH GANDBOLCHILARNI SARALASHDA MAXSUS  
JISMONIY TAYYORGARLIGINING AHAMIYATI**

**Annotation.** Ushbu maqolada gandbol sport turiga yosh gandbolchilarни saralshda maxsus jismoniy tayyorgarlikning ahamiyatini baholovchi asosiy dastiriy testlar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Saralashda qo‘llaniladigan maxsus jismoniy tayyorgarlikning asosiy testlari, 30 m masofaga yugurish, turgan joydan uzunlikka sakrash, yuz metrga mokisimon yugurish, to‘pni 30 m ga yerga urib yugurib, ustunchalarни oralab o‘tib to‘p otish, to‘pni aniq mo‘jalga otish.

O‘zbekistonning davlat siyosatida mamlakatda jismoniy tarbiya va sportning yanada rivojlanishi, sog‘lom yosh avlodni tarbiyalash ustuvor yo‘nalishga aylandi. Mustaqillikdan so‘ng jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun bir qator Prezident farmon va qarorlari qabul qilindi. Jumladan 2020-yil 30-oktyabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-sonli farmonlari bunga yaqqol misoldir. Qabul qilingan farmon va qarorlar aholini salomatligini mustaxkamlash, jismoniy tarbiya va sportni ommaviyligini oshirish hamda, rivojlantirishda asosiy omil bo‘lib kelmoqda.

Ishning dolzarbli shundan iboratki. Sportda saralashning nazariy asoslari, kelajagi porloq sportchilarни saralab olish uslubi ilmiy jihatdan o‘rganishni tashkil etishga imkon beradi. To‘g‘ri saralab olish va keljakni ishonch bilan aytish sport



mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanuvchilarning dastlabki va oxirgi natijalari o‘rtasidagi aloqadorlik bilan aniqlanadi. Bunda ularning o‘sish darajasi ham hisobga olinadi. Ko‘rinib turibdiki, sportda saralab olish masalalari dolzARB masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Sportda saralab olish bugungi kunda juda dolzARB hisoblanadi. O‘zbekiston bolalar va o‘smirlar sport maktabida saralab olish uslublarini qo‘llash va eng samaralisini saralab olishni tahlil qilish tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi. Gандbol o‘yini butun dunyoda va bizning O‘zbekistonda ham ommaviy sport turlaridan biri bo‘lib yoshlar o‘rtasida sevib o‘ynaydigan sport turi hisoblanadi. Sportda saralashning muhim asoslaridan biri saralab olish bosqichlari masalasidir. Ularning har biri o‘zining tashkil etish va saralab olish uslubiga, layoqatli va iste’dodli sportchilarning qobiliyatini oldindan biliш kabi xususiyatlarga ega hisoblanadi.

- **Birinchi davr**-sport maktablariga qabul qilish va guruhlarni to‘ldirish.
- **Ikkinci davr**-oddiy maktabda tayyorgarlik ko‘rgan layoqatli sportchilarni oldindan aytib berish.
- **Uchinchi davr**-sport mahoratini yaxshi o‘zlashtirib olgan sportchilar orasidan mamlakat o‘smirlar, yoshlar va milliy terma jamoalariga nomzodlar saralab olishdan iborat.

Saralab olish tuzilmasi sportchilar faoliyatini chuqur va atroficha o‘rganish va shu sport turining ruhiyatiga va organizmiga qo‘yiladigan talablarini aniqlashga bog‘liq bo‘ladi.

Shuning uchun ham yosh gандbolchilarni saralab olish quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- ❖ birinchi davri-ikki-uch mashg‘ulotdan tortib, bir oygacha;
- ❖ ikkinchi davr-ikki yilgacha;
- ❖ uchinchi davr esa, uch-to‘rt yilgacha davom etishi tavsiya etiladi.

Yosh gандbolchilarni saralab olishda qo‘llaniladigan maxsus jismoniy tayyorgarlikni baholovchi asosiy testlarini to‘g‘ri tanlamaslik saralab olishniadolatli o‘tishiga to‘sqinlik qilib, turli tortishuvlarga sabab bo‘lishini inobatga olib gандbolda saralab olish mavzusiga oid o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar va ilmiy maqolalardagi ma’lumotlardan foydalanib, saralab olishda qo‘llaniladigan maxsus jismoniy tayyorgarlikni aniqlashda asosiy testlarini ishlab chiqishga qaror qildik.

Saralab olishda qo‘llaniladigan umum jismoniy tayyorgarlikning asosiy testlari quyidagilardan iborat;

- 30 m ga yugurish. Jihozlar: soniyaning o‘ndan bir bo‘lagini ko‘rsatuvchi vaqt o‘lchagich: o‘yin maydonida 30 metrli masofani aniq belgilash: tovush signaliga mos keladigan ko‘rish signali va yakunlovchi belgi.

- **Joydan turib uzunlikka sakrash.** Jihozlar: maydonning ma’lum bir joyida depsinish uchun chiziq o‘tkaziladi, shu chiziqa perpendekulyar bir metr masofadan har bir bo‘lagi 5 sm dan bo‘lgan 1,5 metrli shkaliasimon belgi qo‘yiladi.

- **Joydan uch hatlab sakrash (faqat o‘smirlar uchun).** Tekshiriluvchi dastlabki holatda belgilangan chiziq yonida joylashadi. U avval ikki oyoq bilan depsinib sakrab o‘ng yoki chap oyog‘iga tushadi va uchinchi qadamni siltanish



oyog‘i bilan depsinib so‘ng ikki oyoq bilan yerga tushadi. Sakralgan masofa umumiyl qoidaga binoan hisobga olinadi. Har bir tekshiriluvchiga ikki imkoniyat berilib, ko‘rsatilgan natijaning yaxshisi hisobga olinadi.

➤ ***Yuz metrga mokisimon yugurish.*** Testning ta’rifi: tekshiriluvchilar yuza chiziq o‘rtasida joylashadilar. Kelishilgan ma’lum bir ishora bo‘yicha sportchilar birin-ketin 6 m, 9 m, 20 metrli belgilarga va yana 9 m, 6 metrli belgilarga yugurib borib qaytishi kerak. Mashqni bajaruvchilar mashqni bajarishda ushbu ko‘rsatilgan belgi chiziqlarga oyoqlarini tekkizib qaytishi shart.

➤ ***Joydan yuqoriga sakrash (abalakov usuli bo‘yicha).*** Testning ta’rifi: Yerda 50x50 sm to‘rburchak chiziladi. Tekshiriluvchilar asbob o‘rnatilgan ushbu to‘rburchakda oyoqlarini chiziqqa tekkizmasdan joylashadilar, so‘ng bellariga kamar bog‘lab yuqoriga sakraydilar. Sakragandan so‘ng ular ushbu to‘rburchakka tushishlari shart. Sakrash natijasida cho‘zilgan o‘lchov tasmasi sakrash balandligini tashkil etadi.

➤ ***Tennis va gandbol to‘pni uzoqlikka otish.*** Testning ta’rifi: gandbol maydonining yuza chizig‘iga parallel qilib 8-10 m kenglikda otish chizig‘i o‘tkaziladi. Maydonning yon tomonidan ushbu chiziqqa perpendekulyar 15 metrlik masofani o‘lchab, u nuqta bilan belgilanadi va shu nuqtadan 20 metr masofaga oralig‘i 20 sm dan, shkalasimon chiziqlar belgilanadi. To‘pni otish yo‘lagi 5 m ni tashkil qilishi kerak. Gandbolchilar to‘pni otishni yuqoridan qo‘lni bukkan holda bajaradilar. Yugurib kelib otish uchun qadamlar soni cheklanmaydi.

Bunday mashqni bajarish uchun gandbolchiga uch imkoniyat beriladi va ko‘rsatilgan natijalarning eng yaxshisi hisobga olinadi.

**Yosh gandbolchilarni saralab olishda maxsus tayyorgarlikning asosiy testlari quyidagilardan iborat bo‘ladi;**

1. ***To‘pni 30 m ga yerga urib yugurib.*** Test qabul qiluvchining ishorasi (sekundomer) bo‘yicha sportchi yuza chiziqdan belgilangan 30 m li belgigacha to‘pni yerga urib yugurib o‘tadi. Chiziqni kesib o‘tgandan so‘ng vaqt o‘lchash uskunasi to‘xtatiladi.

2. ***Ustunchalarni oralab o‘tib to‘p otish.*** O‘yin maydoni bo‘ylab oralig‘i 380 smdan uch qator parallel ustunchalar o‘rnatiladi. Birinchi qator mashq boshlanish chizig‘idan 5 metr, chetdagi qatorlar esa 2,5 va 5 metr masofada o‘rnatiladi. Tekshiriluvchi mashqni o‘rtadagi qatorning to‘g‘risidan boshlaydi, ishora qilingan (vaqt o‘lchagich ishga tushgach) o‘ng tomonga o‘ng qo‘li bilan to‘pni olib boradi va barcha ustunchalarni aylanib o‘tgandan so‘ng, darvozada belgilangan 60x60 maydonni mo‘ljalga olib to‘pni otish bilan (vaqt o‘lchagich to‘xtatiladi) mashqni yakunlaydi. Ikkinchi imkoniyat chap tomonga yurib bajariladi.

3. ***To‘pni aniq mo‘ljalga otish.*** Darvozaning yuqori burchaklariga 40x40 smli nishonlar o‘rnatiladi va har bir burchakdagi nishonga 30 soniya davomida 9 metrli masofadan 3 qadam qilinib, 6 metrdan to‘p otish tayangan holda bajariladi. Tennis va gandbol to‘vida mo‘ljalga tekkizilgan to‘plarning umumiyl miqdori hisobga olinadi.

#### **Maxsus jismoniy tayyorgarlikni baholovchi testlar (10-12 yosh o‘g‘il bolalar misolida)**

Mashq turlari	Yoshi
---------------	-------



	12	13	14
<b>Bolalar</b>			
30 m masofaga yugurish, s	5,8	5,6	5,4
Joyidan uzunlikka sakrash, sm	160	170	180
Joyidan tennis to‘pini uzoqlikka uloqtirish, m	25	30	34
30 m masofaga gandbol to‘pini yerga urib olib yugurish, s	7	6,6	6,4

Yuqoridagi ma'lumotlarni hisobga olib, shunday hulosaga kelish mumkinki, bugungi kunda gandbol rivojlanayotgan sport turi bo'lib, yosh gandbolchilarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Saralab olish hususiyatlarini o'rganish va amaliy uslublarni qo'llash masalasi bugungi o'smirlarda kelajakni yorqin yulduzini ko'rishdan iborat. Tanlov o'tkazish-sportchilarni asosiy saralashdan o'tkazishdek bir gap bo'lib, bunda ma'lum sport turi bilan shug'ullanuvchilar orasida faqat shu sohaga mos keladigan shaxslar qoldirilishi lozim bo'ladi.

Mo'ljallash shaxsning sport qiziqishini, uning jismoniy imkoniyatlariga mos ravishda tanlash maqsadiga xizmat qiladi. Yosh gandbolchilarni saralash va tayyorlashda umumta'lim maktablaridagi gandbol bo'yicha kuni uzaytirilgan va o'quv mashg'ulotlari chuqur o'zlashtiriladigan maxsus sinflar katta ro'1 o'ynaydi. Bunda bolalar gandbolga mehr qo'yadilar va gandbol o'ynash sirlarini o'rganadilar. Har bir sport maktabida gandbol bo'yicha maxsus sinflarning ochilishi o'quv mashg'ulotlari mazmunini yana ham oshiradi. Bunda mashg'ulotlar kuniga 2 mahal o'tkaziladi. To'g'ri saralab olingan gandbolchilar dunyo maydonlarida, Jahon, Yevropa, Osiyo va O'zbekiston birinchiliklari musobaqalarida yuqori natijalarga erishib, o'z Vatanlari sharafini himoya qiladilar.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Pavlov Sh.K., Abdalimov O.X., Yusupova Z.Ye. Gandbol nazariyasi va uslubiyati: Darslik.-T. "Fan va texnologiya", 2017 y
2. Abdurahmonov F.A., Pavlov Sh.K. Gandbol. Jismoniy tarbiya institatlari uchun namunaviy dastur. – T.: O'zDVTI, 2005.
3. Pavlov Sh.K, Akramov J, Abduraxmonov F "Gandbol" Darslik Leder Press nashriyoti 2005 y.
4. Xabibullayev C.X. (2021.05). Qo'l to'pi bo'yicha musobaqalarni o'tkazishda musobaqa qoidalarining ahamiyati. Academic research in yeductional sciencies (ares), volume 2, issuye 5,